

## HUQUQIY IJODKORLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**Jumayeva Shaxrizoda Azimjanovna**

**Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi**

**Irnazarov Shuxrat Najmetdinovich**

**Ilmiy rahbar: Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti o'qituvchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20018821>**

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada huquqiy ijodkorlik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi, amaldagi muammolar va kelajak istiqbollari tahlil qilinadi. Xususan, qonun chiqarish jarayonining samaradorligi, normativ-huquqiy hujjatlarning sifati, yuridik texnikaga qo'yiladigan zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga moslashish masalalari yoritiladi. Milliy qonunchilikni takomillashtirishda huquqiy ijodkorlikning ahamiyati hamda uning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** huquqiy ijodkorlik, normativ-huquqiy hujjat, qonunchilik faoliyati, huquqiy davlat, qonun ustuvorligi, yuridik texnika, qonun chiqarish jarayoni, huquqiy tizimni takomillashtirish.

### **Kirish**

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida huquqiy tartibotni mustahkamlash va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda huquqiy ijodkorlik muhim o'rin tutadi. Huquqiy ijodkorlik orqali jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlar huquqiy normalar bilan tartibga solinadi, yangi huquqiy mexanizmlar yaratiladi va amaldagi qonunchilik tizimi takomillashtiriladi.

Huquqiy ijodkorlik vakolatli subyektlarning normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, o'zgartirish hamda bekor qilishga qaratilgan huquqiy faoliyatidir. Mazkur faoliyat davlat siyosatini amalga oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamiyat ehtiyojlarini huquqiy jihatdan ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda huquqiy tizimni modernizatsiya qilish, qonunchilik sifatini oshirish va normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida huquqiy ijodkorlikning ilmiy asoslangan va samarali tashkil etilishi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Afsuski, amaliyotda qonun chiqarish jarayonida turli muammolar va to'siqlar mavjud bo'lib, ularni hal qilish zamonaviy huquqiy tizimni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, mazkur maqolada huquqiy ijodkorlik tizimini takomillashtirish muammolari va istiqbollari kompleks tahlil qilinadi.

### **Huquqiy ijodkorlik tizimining hozirgi holati va uning ahamiyati**

#### **1.1. Huquq ijodkorligi tushunchasi va uning turlari**

Huquq ijodkorligi – vakolatli davlat organlarining normativ-huquqiy aktlarini yaratish, ularga o'zgartirish kiritish yoki ularni bekor qilishga qaratilgan faoliyatdir. Bu jarayon jamiyat va davlatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli subyektlarning huquqiy hujjatlarini belgilangan tartibda shakllantirishi va qabul qilishini qamrab oladi.

Huquq ijodkorligi jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) huquqiy tartibga solishni talab etadigan holat yoki jarayonni anglash, o'rganish va tahlil etish;
- 2) huquqiy aktning qabul qilish vakolatiga ega organni (subyektni) aniqlash;

3) qabul qilinishi nazarda tutilayotgan aktning shaklini tanlash;

4) tegishli protsedura doirasida huquqiy aktni tayyorlash, qabul qilish yoki o'zgartirish.

Sanab o'tilgan jihatlar o'zaro bog'liq va yaxlit jarayondir.

Huquq ijodkorligi turlari quyidagilardan iborat:

- bevosita huquq ijodkorligi (umumxalq referendum);
- davlat organlarining huquq ijodkorligi (Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va boshqalar);
- alohida mansabdor shaxslarning huquq ijodkorligi (Prezident, vazirlar, hokimlar va boshqalar);
- mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining huquq ijodkorligi.

### **1.2. Qonun ijodkorligi jarayonining tamoyillari va bosqichlari**

Qonunchilik ijodkorligi jarayoni – davlat oliy vakillik organining Konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi qonunlar yaratishga, amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirish kiritishga qaratilgan, shuningdek, eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig'indisidir. U qonun bilan tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama qilish va qabul qilishni o'z ichiga oladi.